SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMI QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy. Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-21-65, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2024 - yil 13 - iyun 158-7-99-Q/24 Nurobod tuman hokimligi

Nurobod tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining hududlarini (mikrohudud) belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan hamda viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining 2024-yil 22-yanvardagi 02-299/23-sonli xatini inobatga olib, tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanda maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga to‘liq jalb etish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Xujamiyarov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi v.v.b. (L.Karimov), ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish sho‘basi mudiri (T.Xalilov)ga tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasasiga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish hamda 1-sinfga qabul jarayonini belgilangan mikrohudud asosida tashkil etilishini ta’minlasin.

4. Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari (J.Sodiqov), Tuman hokimligi oila va xotin-qizlar bo‘limi yetakchi mutaxassisi (U.Eshpulatov), Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali boshlig‘i (M.Muxtorov) tumandagi mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga maktab yoshidagi bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

5. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i v.v.b. (L.Karimov)ga mazkur qaror bilan tumandagi barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tanishtirish va uning ijrosini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

6. Tuman hokimining 2022-yil 7-iyuldagi 142-7-99-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (E.Pardayev)ga mazkur qaror imzolangandan so‘ng bir kun ichida hokimlikning nurobod.uz rasmiy veb saytiga joylashtirish va “Nurobod” gazetasida rasmiy elon qilish vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Xujamiyarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Berdikulov**

Tuman hokimi **S.Berdikulov**

Nurobod tuman hokimining
2024-yil 13-iyundagi
158-7-99-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga to‘liq jalb etish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hudud (mikrohudud)lar ro‘yxati

T/r	Ta’lim muassasasining nomi	Ta’lim muassasasining manzili	7-17 yoshgacha boʻlgan oʻquvchilarni qabul qilish uchun belgilangan mikrohudud
1	1-maktab	Amir Temur mahallasi Mustaqillik ko‘chasi 2-uy	Amir Temur Mustaqillik ko‘chasi ko‘p qavatli uylar, Baraka-1, Baraka-2, Konchilar 1-, 2-, 3- ,4-ko‘chasi ko‘p qavatli uylar, Sharq yulduzi mahallasi Yoshlik, Konchilar, Sharq yulduzi ko‘chasidagi yakka tartibdagi xonadonlar, Sohibqiron 1-tor ko‘cha, Sohibqiron 2-tor ko‘cha, Sohibqiron 3-tor ko‘cha, Sug‘diyona, Sharq yulduzi, Sharq yulduzi 1-tor ko‘cha, Sharq yulduzi 2-tor ko‘cha, Sharq yulduzi 3-tor ko‘cha, Sharq yulduzi 4-tor ko‘cha, Gulzor 1-, 2-, 3-ko‘chalari, Al Buxoriy ko‘chasi ko‘p qavatli uylar, Eski Tinchlik, Usmon Nosir 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-ko‘chalari, Abdulla Qodiriy 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-ko‘chalari, Navro‘z mahallasi Yoshlar 2-, 4-, 6-, 8-ko‘chalari, Sho‘robod 5-, 6-, 8-, 9-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-ko‘chalar
2	2-maktab	Amir Temur mahallasi Amir Temur ko‘chasi 10-uy	Navro‘z mahallasi Zahriddin Muhammad Bobur, Bobur-1, Bobur-2, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, G‘alaba, G‘alaba-1, G‘alaba-2 G‘alaba 3-tor ko‘chalari, Nurliobod ko‘chasi, Amir Temur mahallasi: Alisher Navoiy ko‘chasi, Alisher Navoiy-1-, Alisher Navoiy-2 ko‘chalari, Amir Temur ko‘chasi, Toshkent ko‘chasi, Nurli hayot ko‘chasi, Samarqand 1-, 2-, 3-ko‘chalari, O‘zbekiston ko‘chasi, O‘zbekiston-1, Mustaqillik 2-, 4-, 6-, 8-ko‘chalari ko‘p qavatli uylar, Y.Oxunboboyev ko‘chasi, Sharq yulduzi mahallasi Sharof Rashidov, Samarqand 1-, 2-ko‘chalari, Istiqlol ko‘chasi, Istiqlol 1-ko‘chasi , Sharq yulduzi mahallasi R.Jahongirov ko‘chasi, Qilichli 1-, Mash’al mahallasi Po‘latchi aholi punkti Navro‘z mahallasi Yoshlar 3-ko‘chasi
3	3-IDUM	Ulus mahallasi	Ulus va Yuqori Ulus aholi punkiti, Xalqobod mahallasi Tortuvli guzari
4	4-maktab	Xalqobod mahallasi	Xalqobod mahallasi hududi
5	5-maktab	Oltinsoy mahallasi	Oltinsoy 1-, 2-, 3-, 4-ko‘chalar
6	6-maktab	Boshquduq mahallasi	Boshquduq 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-ko‘chalar
7	7-maktab	Oltinsoy mahallasi	Oltinsoy 5-, 6-, 7-ko‘chalar

8	8-maktab	Tepaqul mahallasi	Tepaqul aholi punkti hudud
9	9-maktab	Tepaqul mahallasi	Uyrig‘ulcha aholi punkti hududi
10	10-maktab	Saroy mahallasi	Saroy mahallasi Saroy, Fayzobod, Kattamahalla, Elparvar, Kattakarvon, Ko‘ktosh, Jiydazor, M-37, Sarchashma ko‘chalari, Kattakarvon 1-, 2-, 3-tor ko‘cha, Saroy 1-tor ko‘cha, Oqtosh 1-berk ko‘cha, Oqtosh 1-, 2-, 3-, 4-, 5-tor ko‘cha, Fayzobod 1-, 2-, 3-tor ko‘cha, Elparvar 1-, 2-tor ko‘cha
11	11-maktab	Sazag‘on mahallasi	Sazag‘on mahallasi Sazag‘on, Xotam, Daraxtzor ko‘chalari,, Gulzor 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-tor ko‘cha, Gulzor 1-, 2-berk ko‘cha.
12	12-maktab	Chortut mahallasi	Uyrig‘ul 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-ko‘chalar, Yangiyo‘l 1-, 2-berk ko‘cha
13	13-maktab	Oqsoy mahallasi	Oqsoy mahallasi quyi Oqsoy hududi
14	14-maktab	Mehnatkash mahallasi	Mehnatkash aholi punkti hududi
15	15-maktab	Mehnatkash mahallasi	Qizil karvon aholi punkti hududi
16	16-maktab	Sarikul mahallasi	Sarikul mahallasi Beklar, Nuroniylar, Chilangarlar, Madaniyat, Obihayot-1, Ohangaron-1, Otkamar-1, ko‘chalari
17	17-maktab	Sarikul mahallasi	Sarikul mahallasi Oqbuloq, Jarbuloq, Ohangaron-2, Sohibqiron, Obihayot-2, Turkiston, Otkamar-2, Hovuzbuloq ko‘chalari
18	18-maktab	Do‘stlik mahallasi	Anjirli 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-ko‘chalar
19	19-maktab	Omondara mahallasi	Omondara-2
20	20-maktab	Omondara mahallasi	Cho‘nqaymish aholi punkti, Yurg‘abuloq, Onhazrat, Yangidehqon, Ko‘tarma ko‘chalari
21	21-maktab	Omondara mahallasi	Tegirmonboshi 1-, 2-, 4-, 6-, 7-ko‘chalar, Omondara mahallasi, Omondara 1/1
22	22-maktab	Girdiqo‘rg‘on mahallasi	Girdiqo‘rg‘on 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-ko‘chalar
23	23-maktab	Jom mahallasi	Jom 3, 4-, 5-, 6-, 7-ko‘chalar
24	24-maktab	Jom mahallasi	Jom 8-, 9-, 10-, 11-, 12-ko‘chalar
25	25-maktab	Jom mahallasi	Jom-13
26	26-maktab	Ulus mahallasi	G‘allakor, G‘allakor 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-ko‘chalar
27	27-maktab	Olg‘a mahallasi	Olg‘a 14-, 15-, 16-, 17-ko‘chalar
28	28-maktab	O‘rtabuz mahallasi	O‘rtabo‘z 1-, 2-, 3-ko‘chalar
29	29-maktab	Chorvador mahallasi	Mehr aholi punkti
30	30-maktab	Olg‘a mahallasi	Olg‘a 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-ko‘chalar
31	31-maktab	Chorvador mahallasi	Xazarmali 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-,7-, 8-, 9-ko‘chalar
32	32-maktab	Ittifoq mahallasi	Toshquduq aholi punkti
33	33-maktab	Ittifoq mahallasi	Musaqoq aholi punkti
34	34-maktab	Qilichli mahallasi	Qilichli 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-ko‘chalar
35	35-maktab	Nurdum mahallasi	Nurdum 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-tor ko‘cha
36	36-maktab	Nurdum mahallasi	O‘rta Sho‘rcha 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-ko‘chalar

37	37-maktab	Sahoba mahallasi	G‘ubdin aholi punkti
38	38-maktab	Yuksalish mahallasi	Qaldirg‘och ko‘chasi
39	39-maktab	Nurdum mahallasi	Saroyqo‘rg‘on 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-ko‘chalar
40	40-maktab	Yuksalish mahallasi	G‘uncha, Humo, Afrasiyob, Zarzamin guzari
41	41-maktab	Nurbuloq mahallasi	Nurbuloq aholi punkti, Yuksalish mahallasi Nasaf va Zamindor ko‘chalari, Po‘latchi mahallasi Yosh kuch ko‘chasi
42	42-maktab	Nurbuloq mahallasi	Gulobod aholi punkti
43	43-maktab	Sahoba mahallasi	Sahoba aholi punkti-ko‘chalar
44	44-maktab	Tegirmonboshi mahallasi	Tegirmonboshi 2-, 3-, 6-, 7-ko‘chalar
45	45-maktab	Jom mahallasi	Jom 1-, 2-ko‘chalar
46	46-maktab	Jarquduq mahallasi	Jarquduq 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-ko‘chalar
47	47-maktab	Jarquduq mahallasi	Changali aholi punkti, Tepalik, Qo‘chqorliota, Oltio‘g‘il, Qarg‘ali, Ag‘roncha ko‘chalari.
48	48-maktab	Qo‘rg‘oncha mahallasi	Qo‘rg‘oncha aholi punkti
49	49-maktab	Qo‘rg‘oncha mahallasi	Sahro aholi punkti, Oqtosh, Ostanabobo, Langar, Istiqlol, Buloqboshi-1 ko‘chalari, Kattaqo‘rg‘on shahar Ingichka qo‘rg‘oni Nurobod mahallasi Kattasoy ko‘chasi
50	50-maktab	Lolazor mahallasi	Daroytut, Daraytut 1-, 2-, 3-, 4-, 5-tor ko‘cha
51	51-maktab	Chortut mahallasi	Tovoqbuloq 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-ko‘chalar
52	52-maktab	Qo‘rg‘oncha mahallasi	Oltio‘g‘il 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-ko‘chalar
53	53-maktab	Buloqboshi mahallasi	Buloqboshi mahallasi Olmazor 1-, 2-, 3-, 4-ko‘chalar, Tinchlik, Yangihayot, Nurobod, Chorbog‘, Ustozlar, Turon, Hilol, Harbiylar ko‘chalari
54	54-maktab	Navbahor mahallasi	Navbahor 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-ko‘chalar
55	55-maktab	Ag‘ron mahallasi	Ag‘ron 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-ko‘chalar
56	56-maktab	Arabota mahallasi	Arabota 5-, 6-, 7-, 8-, 9-ko‘chalar
57	57-maktab	Bunyodkor mahallasi	Bunyodkor 1-, 2-, 3-, 4-, 5-ko‘chalar
58	58-maktab	Nurafshon mahallasi	Oymaxol 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-ko‘chalar, Kattasoy guzari
59	59-maktab	Sahoba mahallasi	Tutli aholi punkti
60	60-maktab	Do‘stlik mahallasi	Ibrohim ota 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-ko‘chalar
61	61-maktab	Mash’al mahallasi	Yangiqishloq 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-ko‘chalar, Sug‘diyona ko‘chasi, Navro‘z mahallasi Nurliobod, Nurliobod 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-tor ko‘chalari, Nurliobod 1-, 2-, 3-berk ko‘chalari, Nurafshon va Navro‘z mahallasi Guliston ko‘chasi, Sharq yulduzi mahallasi Yangi tinchlik, Yangi tinchlik 1-, 2-, 3-berk ko‘chasi.
62	62-maktab	Olg‘a mahallasi	Olg‘a 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-ko‘chalar
63	63-maktab	Tegirmonboshi mahallasi	Tegirmonboshi 4-, 5-ko‘chalar

64	64-maktab	Arabota mahallasi	Arabota 10-, 11-ko‘chalar
65	65-maktab	Oqsoy mahallasi	Yuqori Oqsoy hududi
66	66-maktab	Nurafshon mahallasi	Uzumli, G‘arovli ko‘chalari
67	67-maktab	Po‘latchi mahallasi	Po‘latchi 1-, 2-, 3-, 4-, 5-ko‘chalar
68	68-maktab	Yuksalish mahallasi	Abdulla Avloniy ko‘chasi
69	69-maktab	Nurdum mahallasi	Quyi Sho‘rcha 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-ko‘chalar Tog‘ato‘p, Bog‘onali
70	70-maktab	Ag‘ron mahallasi	Ag‘ron 7-, 8-, 9-ko‘chalar
71	71-maktab	Arabota mahallasi	Arabota 1-, 2-, 3-, 4-ko‘chalar
72	72-maktab	Yuksalish mahallasi	Ziynat guzari
73	73-maktab	Bunyodkor mahallasi	Bunyodkor 6-, 7-, 8-ko‘chalar
74	74-maktab	Po‘latchi mahallasi	Po‘latchi 6-, 7-, 8-ko‘chalar
75	75-maktab	Ulus mahallasi	Ittifoq aholi punkti hududi
76	76-maktab	O‘rtabuz mahallasi	O‘rtabuz 4-, 5-ko‘chalar
77	77-maktab	Mash’al mahallasi	Sho‘robod 1-, 2-, 3-, 4-, 7-, 8-, 10-, 11-, 16-, 17-, 18-ko‘chalar, Zirabuloq 16-, 17-, 18- ko‘chalar, Dalabog‘ 1-, 2-, 3-, 4- ko‘chalar
78	78-maktab	Omondara mahallasi	Omondara 1/2